

## FRAZEOLOGIZMLARNING TA'RIFI MASALASIGA OID TADQIQOT: LUG'AT VA TILSHUNOSLIK MANBALARI TAHLILI

*Maqsudova Shaxnoza Muxsinjon qizi,  
Frag'ona davlat universiteti 2- kurs tayanch – doktoranti,  
[Shaxnozaxon1992@mail.ru](mailto:Shaxnozaxon1992@mail.ru)*

**Annotatsiya.** Mazkur maqola frazeologizmlarga berilgan turli ta'riflarni tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, mazkur tadqiqotda eng nufuzli ingliz tilshunoslik lug'atlari hamda frazeologiya sohasidagi etakchi olimlarning ishlaridan olingan ta'riflar taqqosiy tahlil qilindi. Tadqiqotga asosan, frazeologizmlarning ta'rifida uchta asosiy komponent aniqlandi: semantik kompozitsional emaslik, strukturaviy qat'iylik va an'anaviy xususiyat. Lug'atlar qisqaroq va umumiyroq ta'riflar bersa, ixtisoslashgan tilshunoslik ishlari yanada batafsil va murakkab yondashuvlarni taklif etadi. Ilmiy izlanishlarga binoan shunisi aniqiki, frazeologizmlarning yagona ta'rifi haqida umumiy kelishuv mavjud emas, lekin barcha ta'riflarda uchraydigan umumiy xususiyatlar frazeologiya nazariyasining asosini tashkil etadi.

**Kalit so'zlar:** frazeologizm, idioma, semantika, kompozitsionallik, tilshunoslik, izlanishlar

### I. KIRISH

Frazeologiya XX asrning ikkinchi yarmida mustaqil tilshunoslik sohasi sifatida shakllanib, hozirgi kunda intensiv rivojlanish bosqichida turibdi (Cowie, 1998; Burger et al., 2007). Frazeologik birliklar universal til hodisasi bo'lib, dunyoning barcha tillarida mavjudligi empirik tadqiqotlar orqali tasdiqlangan (Dobrovolskiy & Piirainen, 2005). Ushbu birliklar har qanday tilning leksik-semantik tizimining integral komponentini tashkil etib, til tashuvchilarining kommunikativ kompetensiyasida muhim o'rin tutadi (Wray, 2002). Biroq, frazeologizmlarning terminologik apparati va nazariy asoslari haqida tilshunoslar orasida konsensus yo'qligi kuzatilmoqda. Fellbaum (1998) ushbu muammoni quyidagicha baholaydi: frazeologizmlar ko'p so'zli birliklarning sinfi bo'lib, ular “grammatika va leksikani tushunishimizga qiyinchilik tug'diradigan va hali to'liq hal qilinmagan muammo”dir. Mazkur terminologik va konseptual noaniqlik frazeologiya sohasidagi tadqiqotlarning metodologik jihatdan murakkablashishiga va natijalarning taqqoslanishining qiyinlashishiga sabab bo'lmoqda (Granger & Meunier, 2008). Shu bois, frazeologizmlarning ta'rifi masalasini sistemali ravishda o'rganish zamonaviy tilshunoslik uchun dolzarb vazifa hisoblanadi. Ushbu ilmiy izlanishda, nufuzli ingliz tilshunoslik lug'atlaridagi frazeologizm ta'riflarini tahlil qilish bilan birga frazeologiya sohasidagi etakchi olimlarning nazariy yondashuvlarini o'rganib, ta'riflardagi umumiy va farqli jihatlarni aniqlash masalalarini ko'rib chiqmoqchimiz.

### II. METODLAR

Tadqiqot uchun nufuzli ingliz tilshunoslik lug'atlari (5 ta), frazeologiya sohasida ixtisoslashgan olimlarning ishlari (12 ta) va frazeologiya nazariyasi bo'yicha monografiyalar tanlab olindi. Tahlilga ko'ra, ta'riflar mazmuniy tahlil usuli yordamida o'rganildi. Har bir ta'rifdan frazeologizmlarning asosiy xususiyatlari ajratib olindi va ularning takrorlanish chastotasi hisoblab chiqildi.

### III. NATIJALAR

Frazeologizmlarga berilgan ta'riflarda, lug'atlarning ahamiyati katta. Jumladan, Concise Oxford Dictionary of Current English (2008) frazeologizmni quyidagicha ta'riflaydi: Bu ta'rif xalqaro tilshunoslikdagi frazeologizm kontseptsiyasiga mos keladi va frazeologizmlarning asosiy belgilarini - semantik kompozitsional emaslik, strukturaviy barqarorlik va nutqda tayyor holda ishlatilishini ta'kidlaydi. alohida so'zlarning ma'nosidan keltirib chiqarib bo'lmaydigan ma'noga ega bo'lgan, ammo foydalanish orqali tasdiqlangan o'ziga xos iborachilik” (p. 533). Webster's New World Dictionary (2014) yanada batafsil tavsif beradi: “berilgan tilda birlik sifatida tan olingan va odatdagi sintaktik naqshlardan farq qiladigan yoki qismlari birgalikda olingan literal ma'nosidan farq qiladigan ma'noga ega bo'lgan ibora, konstruktsiya yoki ifoda” deb yoritilgan bo'lsa, Cambridge Encyclopedia of the English Language (2003) frazeologizmni ma'nosi “tashkil etuvchi leksemalarning ma'nosini tekshirish orqali aniqlab bo'lmaydigan” va grammatik hamda leksikal jihatdan qat'iy belgilangan ifoda sifatida tavsiflaydi. O'zbek tilining izohli lug'atida frazeologizmga berilgan ta'rif quyidagicha: tuzilishiga ko'ra so'z birikmasiga, gapga teng, semantik jihatdan bir butun, umumlashgan ma'no anglatadigan, nutqqa tayyor holda kiritiladigan lug'aviy birlik (masalan, tomdan tarasha tushganday — to'satdan, qo'qqisdan) sifatida qaralgan bo'lsa, o'zbek tilining izohli frazeologik lug'atida frazeologizmlar quyidagicha ta'riflangan: “Ma'no yaxlitligiga ega bo'lgan va nutqiy jarayonga qadar ikki va undan ortiq so'zlarning barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutqqa tayyor holda olib kiriluvchi ko'chma ma'nodagi barqaror birikmalarga frazeologizmlar deyiladi.” Bizningcha ushbu ta'rif xalqaro tilshunoslikdagi frazeologizm kontseptsiyasiga mos keladi va frazeologizmlarning asosiy belgilarini - semantik kompozitsional emaslik, strukturaviy barqarorlik va nutqda tayyor holda ishlatilishini ta'kidlaydi.

Lekin bir qator tilshunoslarning fikrlari esa yuqoridagi berilgan ta'rifdan biroz farq qiladi. Sababi ular frazeologizmlarga ta'rifni nafaqat uning semantik xususiyatlarini hisobga olgan holda, balki ularning strukturasi, o'zaro bog'lanishini ko'rib chiqishgan. Jumladan, Fernando (1996) frazeologizmlarni “ko'pincha, ammo har doim ham literal bo'lmagan an'anaviy ko'p so'zli ifodalar” sifatida tasvirlaydi. Bu keng yondashuv Moon (1998) tomonidan “qat'iy va semantik jihatdan noaniq yoki metaforik, an'anaviy ravishda qismlarining yig'indisi bo'lmagan maxsus birlik turi” kontseptsiyasi bilan yanada aniqlanadi. **Semantik yo'nalishdagi ta'rifga asosan**, Glucksberg (2001) frazeologizmlarning “mantiqsiz” tabiatini ta'kidlaydi, bu yerda frazeologizmning lingvistik va frazeologik ma'nosi o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlab bo'lmaydi deya fikr yuritadi. Tabossi va Zardon (1993) frazeologizmlarni “semantik talqini ularning qismlarining talqinidan kompozitsional ravishda kelib chiqmaydigan so'zlar qatori” sifatida qarashadi. Strukturaviy yondashuvga, Kavka (2003) frazeologizmlarni leksikal va sintaktikal jihatdan komplekslar sifatida tushunadi, ular bir tomondan yagona shakl sifatida ishlaydi, boshqa tomondan esa tahlil qilinadigan sintaktikal tuzilmalar sifatida namoyon bo'ladi deb hisoblagan. Shu jumladan, ularga rus tilshunoslarining ham bu boradagi fikrlarini keltirish joiz deb topdik. Rus tilshunosligida frazeologiya sohasining asosi V.V. Vinograd tomonidan XX asrning 40-yillarida qo'yildi. Vinograd frazeologik birliklarni “odatda yagona

semantik butunni tashkil etuvchi, lekin komponentlarining ma'nolari turlicha bo'lishi mumkin" bo'lgan birliklar sifatida ta'rifladi. U frazeologik birliklarni semantik slitnost darajasiga ko'ra to'rt guruhga ajratdi. N.M. Shanskiy (1985) frazeologizmga quyidagicha ta'rif berdi: "Frazeologik aylanma - bu tayyor holda takrorlanadigan til birligi bo'lib, ikki yoki undan ko'p urg'uli komponentlardan iborat, ma'no, tarkib va tuzilish jihatidan barqaror (ya'ni doimiy) bo'lgan birlik". Shanskiy frazeologik aylanmaning asosiy xususiyati uning takrorlanuvchanligi ekanligini ta'kidlab, "frazeologizmlar muloqot jarayonida yaratilmaydi, balki tayyor yaxlit birliklar sifatida takrorlanadi" deb belgiladi. A.I. Molotkov frazeologizmga yanada qat'iy yondashuv taklif etdi. Molotkov frazeologik birliklarni "so'zlardan emas, balki so'z belgilarini yo'qotgan komponentlardan (leksik ma'no, so'z o'zgarish shakllari va leksik-grammatik xususiyatlar) tashkil topgan" birliklar sifatida ta'rifladi. Uning fikricha, frazeologizm "leksik ma'noga ega bo'lgan, doimiy xususiyat sifatida ifoda bo'lib, so'zlardan emas, balki so'z belgilarini yo'qotgan komponentlardan tashkil topgan" birlikdir.

Tahlil natijalariga ko'ra, frazeologizmlarning quyidagi xususiyatlari eng ko'p ta'kidlangan:

1. **Semantik kompozitsional emaslik** - 17 ta manbada (100%)
2. **Strukturaviy qat'iylik** - 14 ta manbada (82%)
3. **An'anaviy xususiyat** - 12 ta manbada (71%)
4. **Kontekstual bog'liqlik** - 9 ta manbada (53%)
5. **Leksikal cheklanganlik** - 7 ta manbada (41%)

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, barcha ta'riflarda frazeologizmlarning semantik kompozitsional emasligi asosiy xususiyat sifatida ta'kidlanadi. Bu degani, frazeologizmning umumiy ma'nosi uning tarkibiy qismlarining ma'nolari yig'indisiga teng emas. Masalan, "tomdan tarasha tushganday" iborasining ma'nosi ("to'satdan") uning tarkibidagi "tom", "tarasha" va "tushmoq" so'zlarining individual ma'nolaridan kelib chiqmaydi. Semantik kompozitsional emaslikning bu xususiyati frazeologizmlarni oddiy so'z birikmalaridan ajratib turadigan asosiy mezon hisoblanadi. Biroq, bu mezonning o'zi ham turli darajalarni o'z ichiga oladi. Vinograd va Shanskiyning tasnifiga ko'ra, frazeologik srasheniyalarda (idiomalar) bu xususiyat mutlaq darajada namoyon bo'lsa, frazeologik birikmalarda nisbiy ko'rinishda kuzatiladi. Lug'atlar odatda qisqaroq va amaliy yo'naltirilgan ta'riflar beradi, ixtisoslashgan tilshunoslik ishlari esa yanada chuqur nazariy yondashuvlarni taklif etadi. Bu farq lug'atlarning amaliy maqsadlari bilan bog'liq. Leksikografik ta'riflar tildan foydalanuvchilar uchun aniq va tushunarli bo'lishni maqsad qiladi, nazariy ishlar esa hodisaning lingvistik mohiyatini ochib berishga intiladi. Rus tilshunoslik maktabi bu sohaga fundamental hissa qo'shgan, ayniqsa V.V. Vinograd va N.M. Shanskiyning klassifikatsiyalari butun dunyo frazeologiyasiga ta'sir ko'rsatgan. Ularning ishlaridagi nazariy chuqurlik zamonaviy frazeologik tadqiqotlar uchun mustahkam asos yaratgan. Tilshunoslar frazeologizmlarning turli jihatlariga e'tibor qaratishadi: ba'zilar semantik (Molotkov, Glucksberg), boshqalari strukturaviy (Kavka, Shanskiy) yoki pragmatik xususiyatlarni ta'kidlaydilar. Rus tilshunosligida komponentlarning "so'zlik xususiyatlarini yo'qotishi" masalasi alohida muhokama mavzusi bo'lgan (Molotkov,

1977). Bu xilma-xillik frazeologizmlarning murakkab tabiatini aks ettiradi va bir vaqtda ushbu sohadagi tadqiqotlarning rivojlanmagan holatini ko'rsatadi. Har bir yondashuv frazeologizmlarning muayyan jihatlariga yorug'lik tushirsa-da, umumiy, qamrab oluvchi nazariya hali yaratilmagan. Frazeologizmlarning universal va milliy-spetsifik xususiyatlari masalasi alohida e'tiborni talab etadi. Ingliz tilshunoslik manbalarida ta'kidlanganidek, frazeologizmlar har bir tilning madaniy-tarixiy xususiyatlarini aks ettiradi, shu bilan birga ular orasida universal belgilar ham mavjud. O'zbek tilshunosligida frazeologizmlarning milliy-madaniy xarakteristikalarini alohida ta'kidlanadi. O'zbek tilining izohli lug'atidagi ta'rif ("Ma'no yaxlitligiga ega bo'lgan va nutqiy jarayonga qadar ikki va undan ortiq so'zlarning barqaror munosabatidan tashkil topgan, nutqqa tayyor holda olib kiriluvchi ko'chma ma'nodagi barqaror birikmalar") xalqaro ta'riflar bilan umumiy xususiyatlarga ega. Frazeologiya sohasidagi asosiy metodologik muammo - bu frazeologizmlarning chegaralarini aniqlash masalasidir. Qaysi til birliklari frazeologizm deb hisoblanishi va qaysilari hisoblanmasligi haqida olimlar orasida fikr birligi yo'q. Bu muammo nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega, chunki frazeologik lug'atlar tuzishda va til o'qitishda muhim rol o'ynaydi.

#### IV.XULOSA

Frazeologizmlarning ta'rifi masalasi tilshunoslikda hali ham ochiq masala bo'lib qolmoqda. Mazkur tadqiqot quyidagi asosiy xulosalarga olib keldi: **Birinchidan**, frazeologizmlarning yagona, umumiy qabul qilingan ta'rifi mavjud emas. Turli mualliflar va maktablar o'ziga xos ta'riflar taklif etishgan, biroq ularning hech biriga universal maqom berilmagan. **Ikkinchidan**, barcha ta'riflarda uchraydigan umumiy xususiyat - semantik kompozitsional emaslik - frazeologiya nazariyasining asosini tashkil etadi. Bu xususiyat frazeologizmlarni boshqa til birliklaridan ajratib turadigan asosiy mezon hisoblanadi. **Uchinchidan**, lug'at va ilmiy ta'riflar o'rtasida sezilarli yondashuv farqi mavjud. Leksikografik ta'riflar amaliy maqsadlarga xizmat qilsa, nazariy ishlar chuqur lingvistik tahlilga intiladi. **To'rtinchidan**, frazeologizmlar tilning murakkab hodisasi bo'lib, turli tilshunoslik sohalarining - semantika, sintaksis, pragmatika, madaniy lingvistika - kesishmasida joylashgan. Bu murakkablik ularni o'rganishda kompleks yondashuvni talab etadi. Mazkur tadqiqot frazeologiya nazariyasining hozirgi holatini sistemali baholash imkonini berdi. Ta'riflar tahlili frazeologizmlarning asosiy xususiyatlarini aniqlash va ularni ierarxik tartibda joylashtirish uchun asos yaratdi. Bundan tashqari, turli tilshunoslik maktablarining frazeologiyaga qo'shgan hissasini baholash mumkin bo'ldi. Tadqiqot natijalari frazeologik lug'atlar tuzish, til o'qitish va tarjima ishlarida qo'llanilishi mumkin. Frazeologizmlarning asosiy xususiyatlarini aniq belgilash orqali ularni tanib olish va talqin qilish jarayonlarini yaxshilash imkoniyati paydo bo'ladi.

## V. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Cambridge Encyclopedia of the English Language. (2003). 3rd edition. Cambridge: Cambridge University Press.
2. Cambridge International Dictionary of Idioms. (1998). Cambridge: Cambridge University Press.
3. Collins COBUILD English Language Dictionary. (1987). London: Collins Publishers.
4. Concise Oxford Dictionary of Current English. (2008). 11th edition. Oxford: Oxford University Press.
5. Fellbaum, C. (1998). WordNet: An Electronic Lexical Database. Cambridge, MA: MIT Press.
6. Fernando, C. (1996). Idioms and Idiomaticity. Oxford: Oxford University Press.
7. Fernando, C. (2006). On Idiom: Critical Views and Perspectives. Exeter: University of Exeter Press.
8. Flavell, R. H. (1992). Dictionary of Idioms and their Origins. London: Kyle Cathie Publishers.
9. Glucksberg, S. (2001). Understanding Figurative Language: From Metaphors to Idioms. Oxford: Oxford University Press.
10. Kavka, S. (2003). A Book of Prefixes. Žilina: EDIS Publishing.
11. Kvetko, P. (1998). An Outline of English Phraseology. Trnava: UCM.
12. Mackay, R. (1987). “Lexical phrases and culture-specific metaphors in EFL”. *ELT Journal*, 41(2), 122-126.
13. Moon, R. (1998). Fixed Expressions and Idioms in English: A Corpus-based Approach. Oxford: Clarendon Press.
14. O’Grady, W. (2005). Contemporary Linguistics: An Introduction. 5th edition. Boston: Bedford/St. Martin’s Press.
15. Online Oxford English Dictionary. (2023). Oxford: Oxford University Press. Available at: <https://www.oed.com>